



BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KASBIY MOTIVATSIYASING AHAMIYATI

Yaqubova D.B.

Urganch davlat universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası” katta o‘qituvchisi, PhD

Tayanch so‘zlar: motiv, motivatsiya, pedagogik faoliyat, kasbiy yo‘nalish, kasbiy kompetentlik, individual ta‘lim, jismoniy madaniyat, bo‘lajak o‘qituvchi.

Ключевые слова: мотив, мотивация, педагогическая деятельность, профессиональное направление, профессиональная компетентность, индивидуальное образование, физическая культура, будущий учитель.

Key words: motiv, motivation, pedagogical activity, professional direction, professional competence, individual education, physical culture, future teacher.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 3775-son qarorlariga muvofiq oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan jumladan, oliy ta‘limning jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarini ham zamon talablariga javob beradigan mutaxassis qilib tayyorlash talabini qo‘ymoqda.

Oliy ta‘lim muassasalari jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarini tayyorlash ta‘limining eng muhim vazifalari-bu talabalarining bilimga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, kasbiy va pedagogik rivojlanish, o‘zini takomillashtirishning individual yo‘lini tanlash imkoniyatini berishdan iborat. Bu vazifalarni hal qilish talabalarining ta‘lim ehtiyojlarini o‘rganishni, kasbiy faoliyatning nazariy va amaliy asoslarini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlashni talab qiladi.

Hozirda rivojlangan texnologiya va texnika asrida insonlar orasida kam harakatlanish asab tizimining haddan tashqari kuchlanishiga, yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga, metabolik kasalliklarga va semizlikka olib kelishi natijasida harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarning oshishi kuzatilmoqda. Shularni inobatga olib, hozirgi kunda jismoniy madaniyat o'qituvchisi dars jarayonini samarali tashkil qilib qolmasdan, o'quvchida jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini uyg'otish, maktabdan tashqari vaqtlarda ham mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirishi talab qilinadi.

Buning uchun bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilaridan kasbiy kompetentligini yuqorida darajada egallashi kerak bo'ladi, bunda avvalo o'z kasbiga bo'lgan qiziqish va bir qator motivatsiyaslarni shakllantirishi lozim. Shunday qilib, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish muammosi dolzarb psixologik muammodir.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayyorlash ta'limini isloh qilish o'qituvchilik kasbini o'rganish va egallashga bo'lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining shaxsiga ijtimoiy ta'sir qilish usullarini o'zgartirishni nazarda tutadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda motivatsiya muammosi L.I.Bozovich, D.Bruner, R.Baron, B.Vayner, F.Vaynert, V.K.Vilyunas, J. Grinberg, F.Nerdinger, K.K.Platonov, P.M.Jacobson[5] va boshqa tadqiqotchilar tamonidan o'rganilgan. Ularning asarlarida ta'kidlanishicha, motivatsiya ruhiy hodisa sifatida insonning faoliyatini belgilaydigan, uning xatti-harakatini rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ko'plab motivlarning kombinatsiyasi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat motivatsiyasi muammosini I.A.Zimney, N.V.Kuzmina va V.A.Slastenin kabi olimlar eng chuqur o'rganganlar[7]. Olimlar "O'qituvchi" kasbining motivatsiyasini shaxsning pedagogik yo'nalishi deb bilishadi. Bu talabalarning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishida, shuningdek, ularda insoniy fazilatlarini tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi, bu esa ularni keyingi o'z-o'zini tarbiyalashni ta'minlaydi. Kasbiy yo'nalish, shuningdek, o'qitishning muvaffaqiyati va o'qituvchi kasbini tanlashdan qoniqishini belgilovchi omil sifatida qaraladi.

I.A.Zimney[5] talqinida, pedagogik faoliyat motivatsiyasi - bu doimiy o'zgarib turadigan va bir-biri bilan yangi munosabatlarga kiradigan ketma-ketlik sifatida baholaydi. Bundan tashqari, motivatsiya - bu faoliyatga salbiy munosabatning oddiy ijobiy o'sishi yoki yomonlashuvi emas, balki uning motivatsion sohasining murakkablashuvi, ular o'rtasida yangi,



murakkab qarama -qarshiliklarning paydo bo'lishidir. Bu talabalarga nafaqat universitetning o'quv jarayoniga moslashish davrida, balki ular uchun maxsus fanlar rivojlanishi va kasbiy mahoratning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq qiyin paytlarda ham psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish zarurligini ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash ularning umuminsoniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetentsiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga, shuningdek, ular shaxsiyatining kasbiy yo'nalishini shakllantirishga va faolligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu fikrlarni ishlab chiqishda N.V.Teltevskaya ta'kidlashicha, moslashish davri individualdir va u talabaning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash istagi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, o'quv jarayonida ularning ijobiy motivatsiyasini shakllantirish[10], o'qituvchilar tomonidan kasbiy tayyorgarlik bo'yicha talabalarga individual yondashuvni izlash va shaxsan muhim maqsadlarni belgilash bilan bog'laydi.

Bu vaziyatlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlaymizki, bu individual yondashuv bo'lib, u talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishining ichki mexanizmlaridan foydalanishi va shu tariqa o'quv jarayonida qo'llaniladigan barcha didaktik usullarning samaradorligini oshirishga yordam beradi[6].

Kanadalik olimlar D.B.Makkoach va J.K.Flakelar[3] motivatsiyani muvaffaqiyatning muhim komponenti deb bilishadi. Ularning fikricha, motivatsiya talabalarning "qobiliyatini yoqish uchun turtki beradi" va ularning o'quv yutuqlariga aylanishiga yordam beradi. Tegishli motivatsiya bo'lmasa, hatto iqtidorli talabalar ham o'z istedodlarini to'liq rivojlantira olmaydi.

Ma'lumki, tadqiqotchilar (T.N.Antonova, A.K.Markova[8] va boshqalar) motivatsiyaning ikki turini ajratadilar: tashqi va ichki. Agar tashqi motivatsiya biror narsaga erishish vositasi bo'lsa, ichki motivatsiya insonning rivojlanishini rag'batlantiradi va uning kasbiy mahoratini oshirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Ichki motivatsiya bu faoliyatning bajarilishini bildiradi va ko'p jihatdan subyektning qiziquvchanligi bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Shuning uchun uni amaliy mashg'ulotlarning mazmuni va faoliyatini rag'batlantirishi yoki rag'batlantirmasligi mumkin. Shunga asoslanib, talaba motivatsiyani erkin tanlaganida, u tabiiy ravishda motivatsiyalangan va universitetning o'quv dasturini o'zlashtirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lganda, mashg'ulotlar muvaffaqiyatli o'tkaziladi. Bundan tashqari, K.R.Butcher va T.Sumner[2] o'z tadqiqotlarida talabaga o'zining amaliy tajribasi kerakligini ko'rsatdi, chunki shundan keyingina olingan kasbiy bilimlarni qanday va qachon ishlatishni aniqlash mantiqan to'g'ri keladi.

T.A.Fedorov va V.V.Jilkinning ta'kidlashicha, talabalarning birinchi yillardan oxirgi kurslarga o'tish davrida kasbga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada kamayadi, chunki ular universitetga kirish bosqichida har doim ham o'zlari tanlagan kasbining talablari, maqsadlari va vazifalarini to'g'ri tushunmaydilar[9].

Oliy ta'limning jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari o'qish jarayoniga nisbatan qiziqishining bo'lmasligiga ko'p uchraydigan sabablardan biri, talabalarning mutaxassislikni tanlashda o'z xohishiga emas, ota-onasining talabiga binoan tanlaganliklarini aytish mumkin, bunda talabalarda mutaxassislikka qo'yilgan talablar bilan ziddiyatlar yuzaga kelishi va o'qish jarayoniga nisbatan qiziqishning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, talabaning ta'lim talablari va mos bo'lmagan qobiliyatlari o'rtasida nomuvofiqliklar bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda o'qituvchilar jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarning boshlang'ich tayyorgarligi darajasidan, ularning mantiqiy tafakkurining yetishmasligidan, jarayonni idrok etish, ilmiy va o'quv matnlarini tahlil qilish qobiliyati umuman pastligidan noroziligini bildirishmoqda.

Bunday sharoitda, agar jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari mavjud ta'lim kamchiliklarini to'ldirib, faollik, tashabbuskorlik bilan o'rganish qobiliyatini ko'rsatmasa, o'qituvchilarning ishi behuda ketishi mumkin. Talabalarning muvaffaqiyatli o'qish va yaxshi ta'lim olish istagi har qanday ta'lim muassasasida ta'lim samaradorligining asosiy shartidir.

Shunga ko'ra, quyidagi tadqiqot savollari paydo bo'ladi:

- talabalarni yaxshi o'qishga nima undaydi?
- nima uchun kirish imtihonlari ballari bir xil bo'lgan talabalar har xil mahsuldorlik bilan o'rganishadi?
- nima uchun bitta talaba turli vaziyatlarda va turli fanlarda turlicha o'rganadi?
- ta'lim samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak?

Bu savollarning barchasi kasbiy motivatsiya muammosiga birlashtirilgan. Motivatsiya - bu odamning har qanday faoliyatini, shu jumladan ta'limini rag'batlantiruvchi, tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi murakkab motivlar tizimidir. Shunday qilib, motivatsiya masalasi ta'lim tadbirlarining sifati masalasidir.

O'quv motivatsiyasi-bu yangi bilim, ko'nikma, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirishga undovchi motivatsiya hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat motivatsiyasi - bu odamni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga undaydigan va yo'naltiradigan va bu faoliyatga asosiy e'tiborni kasbiy



maqsadlarga erishishga qaratadigan ichki va tashqi omillar to'plamidir. Binobarin, kasbiy faoliyat motivlari kelajakda kasbiy faoliyatning samaradorligi uchun asosiy shartlarni yaratadi.

Zamonaviy dunyo oliy ta'lim tizimiga alohida talablar qo'yimoqda. Bugungi bo'lajak o'qituvchiga chuqur nazariy bilim berishning o'zi yetarli emas. Talabalarda amaliy faoliyada mustaqil bajartirish orqali kasbiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ta'lim paradigmasining bunday o'zgarishi mos ravishda talabalarda motivatsiyani shakllantirish talablarining o'zgarishiga olib keladi. Hozirgi sharoitda bu xulosaning isboti oliy ta'limdagi barcha o'quv jarayonini qayta qurishni talab qiladi.

Davlat talablarining oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga qo'yadigan zamonaviy talablari o'quv jarayoniga jiddiy o'zgarishlar kiritadi: talabalar nafaqat ma'lum bilimlarni egallaydilar, balki shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantiradilar, kognitiv, ijodiy qobiliyatlar va mustaqil faoliyatni faollashtirish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Shu bilan birga, oliy ma'lumot ta'limning zamonaviy talablariga javob beradigan bo'lajak o'qituvchini sifatli tayyorlash tizimi muammosini hal qilishi kerak.

Bugungi kunda talabalarining barqaror motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradigan yangi yondashuvlar va ulardan foydalanish zarurati mavjud.

Kasbiy motivatsiyasining shakllanishi bir qancha omillar bilan belgilanadi:

- ta'lim ishlari olib boriladigan ta'lim muassasasi;
- o'quv jarayonini tashkil etish;
- ta'lim mazmuni;
- o'qituvchilarining o'qitishning innovatsion usullarini joriy etishga tayyorligi; o'qituvchining talabalarining o'ziga xos xususiyatlari (intellektual rivojlanishi, qobiliyatlari, intilishlari darajasi va boshqalar) ni hisobga olishiga.

Yuqorida aytilganlarning barchasi talabalarining mashg'ulotlarga ijobiy motivatsiyasi, kelajakdagi kasb va uni o'zlashtirish usullari haqida haqiqiy g'oyalarni ishlab chiqishga va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish motivatsiyasini shakllanishiga yordam beradi.

Kasbiy motivatsiyani shakllantirishda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati katta, bu yerda talabalar - bo'lajak o'qituvchilar o'z kelajagini kasbiy faoliyatini modellashtiradi, o'quv va kognitiv faoliyatning faol sub'ektiga aylanadi, o'ylash va o'z-o'zini tekshirish bosqichlaridan o'tishadi, mustaqil faoliyat uchun motivatsiyasini shakllantirishadi, muayyan mehnat harakatlarini



bajarishni o'rganishadi va eng muhimi, o'zlarining ta'limda qarashlarini tuzishga erishishadi.

Adabiyotlar:

1. Azizodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligini tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. -52 b.
2. Butcher K.R., Sumner T. Self-directed learning and the sensemaking paradox. *Human-Computer Interactions*. 2011. № 26. P. 159.
3. McCoach D.B., Flake J.K. The role of motivation. *APA handbooks in psychology. APA handbook of giftedness and talent* / S.I. Pfeiffer, E. Shaunessy-Dedrick; editors M. Foley-Nicpon. Washington, 2018. P. -213. DOI:10.1037/0000038-013.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari. *Ped.fan.dokt. ...diss.* T - .: 2007. 357 b.
5. Бакшаева Н.А., Вербицкий А.А. Психология мотивации студентов: учебное пособие. М.: Логос, 2016. 178 с.
6. Веретенникова В.Б., Шихова О.Ф. О мотивации студентов – будущих педагогов к педагогической деятельности // *Современные проблемы науки и образования*. – 2020. – № 2.;
7. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высш. шк., 1980. 117 с.
8. Маркова А.К. Формирование мотивации учения. М.: Просвещение, 1990. 192 с.
9. Осипова Н.Г., Колодезная Г.В., Шевцов А.Н. О закономерностях и причинах отчислений в вузе и мотивации учебной деятельности студентов // *Образование и наука*. 2018. Т. 20. № 6. С. 182.
10. Тельтевская Н.В. Мотивационная функция целеполагания в учебной деятельности студентов // *Известия Волгоградского технического университета. Серия: Проблемы социально-гуманитарного знания*. 2012. Вып. 10. Т 3 (90). С.166.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalariga qo'yilgan talablar, motiv, motivatsiya tushunchalari, bir qator olimlar tomonidan motivatsiyaning bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatidagi tutgan o'rni va bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari faoliyatida kasbiy motivatsiyani ahamiyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье сформулированы требования к абитуриентам факультета физической культуры, понятие мотивации, мотивации, роль мотивации в работе будущих учителей по мнению ряда ученых и значение профессиональной мотивации в работе будущих учителей физической культуры. освещенный.

SUMMARY

In this article, the requirements for prospective students of physical culture, the concept of motive, motivation, the role of motivation in the work of future teachers by a number of scholars and the importance of professional motivation in the work of future teachers of physical culture illuminated.